

# BUXORO XONLIGI VA HINDISTON DAVLATI O'RTASIDAGI DIPLOMATIK MUNOSABATLAR

Abdurahmonova Nilufar

Nizomiy nomidagi O'zbekiston

Milliy Pedagogika Universiteti talabasi

## Abstract

Anotatsiya: Mazkur maqolada Buxoro xonligi va Hindiston o'rtasidagi diplomatik munosabatlarning tarixiy rivoji yoritilgan. Unda savdo yo'llari orqali boshlangan dastlabki aloqalar, Boburiylar davrida siyosiy, savdo va madaniy muloqotning kuchayishi, shuningdek, Abdullaxon II davridagi elchilik an'analari tahlil qilinadi. Maqolada ikki davlat o'rtasidagi diplomatik aloqalarning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va ularning Markaziy Osiyo tarixidagi o'rni ilmiy asosda yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Buxoro xonligi, Hindiston, diplomatik munosabatlar, Boburiylar sulolasi, savdo yo'llari, Ipak yo'li, siyosiy aloqalar, madaniy hamkorlik, savdo almashinuvi, Abdullaxon II, elchilik an'analari, Markaziy Osiyo tarixi, Buxoro–Hindiston aloqalari, tarixiy diplomatiya

## Introduction

### Аннотация:

В данной статье освещается историческое развитие дипломатических отношений между Бухарским ханством и Индией. Рассматриваются ранние связи, начавшиеся через торговые пути, усиление политического, торгового и культурного взаимодействия в период Моголов, а также дипломатические традиции при Абдулла-хане II. В статье научно раскрываются формирование, этапы развития и значение дипломатических отношений между двумя государствами в контексте истории Центральной Азии.

## Annotation

This article highlights the historical development of diplomatic relations between the Bukhara Khanate and India. It examines the early contacts that began through trade routes, the strengthening of political, commercial, and cultural interactions during the Mughal period, as well as the tradition of diplomatic missions under Abdullakhan II. The article provides an academic explanation of the formation, stages of development, and significance of diplomatic relations between the two states within the context of Central Asian history.

**Kalit soʻzlar:** Buxoro xonligi, Hindiston, diplomatik munosabatlar, Boburiylar sulolasi, savdo yoʻllari, Ipak yoʻli, siyosiy aloqalar, madaniy hamkorlik, savdo almashinuvi, Abdullaxon II, elchilik anʼanalari, Markaziy Osiyo tarixi, Buxoro–Hindiston aloqalari, tarixiy diplomatiya

Buxoro xonligi Markaziy Osiyodagi eng muhim siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlardan biri boʻlib, asrlar davomida Sharq diplomatiyasida alohida oʻrin egallagan. Oʻrta Osiyo hududida barqaror siyosiy tizim yaratgan Buxoro xonligi, nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro aloqalarda ham faol rol oʻynagan. Hindiston esa, ayniqsa Boburiylar sulolasi davrida, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan dunyoning yirik davlatlaridan biri boʻlgan. Ular nafaqat boy resurslari, balki rivojlangan sanʼat, ilm-fan va hunarmandchilik markazi sifatida ham eʼtiborga molik edi. Buxoro xonligi va Hindiston oʻrtasidagi munosabatlar qadimdan savdo va siyosiy muloqot orqali shakllangan. Ipak yoʻli orqali amalga oshirilgan savdo aloqalari ikki davlatning iqtisodiy va madaniy rivojida muhim ahamiyat kasb etgan. Shu bilan birga, savdo karvonlari va elchilar orqali oʻrnatilgan diplomatik aloqalar ikki tomonlama ishonch va hamkorlikni mustahkamladi.

B.Obidov oʻzining “Boburiylar davrida Hindiston va Turkiston aloqalari (XVI-XVII asrlar)” asarida Hindiston-Markaziy Osiyo aloqalari aynan Boburiylar hukmronlik qilgan davrda oʻz choʻqqisiga yetganligini taʼkidlagan. Shu bilan birga asarda ikki mintaqa oʻrtasidagi madaniy yaqinlashuv jarayoni tezlashganligi va har jihatdan bu oʻzaro qoʻshiluv yangicha ijobiy sintezni vujudga keltirganligini taʼkidlab oʻtgan. Markaziy Osiyo xalqlarining oʻziga xos madaniyati, milliy anʼanalari, sanʼati, adabiyoti ham ikki oʻlka xalqlarining aloqalari jarayonida bir-biriga taʼsir qilib, bir-birini boyitganligiga toʻxtalib oʻtilgan.[1]

Bobur Hindistonda hukmronlik qilgan davrda Buxoro xonligi bilan munosabatlar tinch va do'stona tarzda olib borilgan. Ular o'rtasida rasmiy elchilik aloqalari bo'lgan, lekin bu munosabatlar asosan siyosiy maslahatlar va mintaqaviy barqarorlikni saqlashga qaratilgan. Shuningdek, ikki davlat o'rtasida madaniy va ilmiy muloqot ham mavju bo'lgan. Masalan, Buxorodan Hindistonga ulamolar, mutafakkirlar va hunarmandlar yuborilgan, ular Hindiston madaniyatiga o'z hissasini qo'shgan. Bobur o'z yurishlari va boshqaruvi davrida Buxoro bilan muloqotlarni muntazam saqlagan, bu esa ikki davlat o'rtasida do'stona aloqalar va ishonchni rivojlantirishga xizmat qilgan. Oddiy qilib aytganda, Bobur davrida Buxoro bilan aloqalar tinch, do'stona va mintaqaviy hamkorlikka asoslangan bo'lgan. Hindistondagi Boburiylar saltanati bilan Buxoro xonligi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning o'rnatilishi Bobur va Ko'chkunchixonlar nomi bilan bog'liq. Ko'chkunchixon hukmronligi davrida Buxoro xonligi Boburiylar davlatini tan oldi. U bilan savdo va elchilik munosabatlarini o'matdi. Buxoro elchisi xon tomonidan Boburga Movarounnahming mashhur mayizlaridan, subhoni o'riklaridan va boshqa noyob ne'matlaridan iborat sovg'a-salomlari qatorida 200 ta yaxshi ot ham olib keldi. O'z navbatida, Bobur ham Buxoro xonligiga elchilar yubordi. Ikki davlat o'rtasidagi bunday munosabatlar keying! shayboniy va boburiy hukmdorlar davrida yanada kengaydi. Xususan, Abdullaxon II safaviylarga qarshi kurashda boburiylar bilan birga harakat qilishga intildi. Shu sababdan Abdullaxon II Akbarshoh huzuriga bir necha marta elchilarini yubordi. Abdullaxon II Akbarshohga Eronni o'zaro taqsimlab olishni taklif qildi. Lekin Akbarshoh bunga rozi bo'lmadi. Chunki Akbarshoh fuqarolari turli din vadiniy yo'nalishlarga e'tiqod qiluvchi davlatlarning bir-biriga toqat qilib yashashlari tarafdori hamda diniy bag'rikenglikni davlat siyosati darajasiga ko'targan hukmdor edi. Qolaversa, u Eron bilan yaxshi munosabatda bo'lganligini Hofis Tanish al-Buxoriy o'zining "Abdullanoma" asarida yozib qoyilgan.[2]

Markaziy Osiyo bilan Hindiston o'rtasidagi siyosiy aloqalar XV–XVII asrlardan e'tiboran diplomatik munosabatlarga asoslanadi. Markaziy Osiyo va Hindiston xalqlari o'rtasidagi siyosiy, madaniy va diplomatik aloqalarning rivojlanishida Abdurazzoq Samarqandiyning Hindistonga qilgan safari katta ahamiyat kasb etadi. Atoqli tarixchi, o'z zamonasining buyuk davlat arbobi Abdurazzoq Samarqandiy Amir Temurning o'g'li Eron va Turon hokimi, Shohruh saroyiga yaqin kishilardan bo'lib, ko'pincha elchilik vazifasini o'tgan. Abdurazzoq

Samarqandiy 1442-yilda Hindistonga elchilik safari bilan yuboriladi. U ikki jilddan iborat « Matla' us-sa'dayn va majma' ul-bahrayn nomli asarining ikkinchi jildida Hindistonga qilgan safari haqida hikoya qiladi. U Hirotdan Eron shaharlari va Ummon (Arab dengizi) orqali Hindistonning Kalikut shahriga keladi. Abdurazzoq Samarqandiy o'z asarida Hindistonning ijtimoiy hayoti, hindlarning urf-odatlariga oid qimmatli ma'lumotlarni keltirgan.[3]

Hindistonlik tarixchi olim Ramech Chandra Varma o'zining "Akbar and Abdulla Khan" ("Akbar va Abdullahon") asarida Turkiston bilan Hindiston o'rtasidagi munosabatlarni Akbarshoh davrida rivojlanish cho'qqisiga chiqqanini, Abdullaxon elchisi Oltamish Akbar huzuriga kelganini va shu elchi orqali Akbarshoh Abdullaxon bilan do'stlik munosabatini o'rnatishga rozi ekanini bildiradi. Hindiston va Markaziy Osiyo xalqlari asrlar davomida bir-birlari bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarni yo'lga qo'yidilar. Buning asosini Markaziy Osiyoning juda qulay jug'rofiy mavqega ega bo'lishi alohida ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyo orqali Sharq bilan G'arb o'rtasidagi savdo-sotiq, jumladan, Markaziy Osiyo bilan Hindiston o'rtasida savdo aloqalari keng ko'lamda rivoj topdi. Boburiylar davrining dastlabki me'morchilik va tasviriy san'at na'munalarida temuriylar sulolasi hukmronlik qilgan davr san'atiga xos an'analarni ko'rish mumkin. XVI asr ikkinchi yarmida Markaziy Osiyo va Hindistonda nisbatan kuchli markazlashgan davlatlar vujudga keldi. Boburiy Akbarshoh (1556–1605) taxtga chiqishi bilan deyarli bir vaqtda Buxorodagi hokimiyat Shayboniylar sulolasining so'nggi hukmdori Abdullaxon (1557–1598) qo'lga o'tdi. Akbarshoh davrida Boburiylar imperiyasi shimolda Tibet chegaralaridan tortib, janubda Todavari daryosi, g'arbda Gujorotdan to sharqda Bengal ko'rfazigacha yoyildi. Abdullaxon podsholigi vaqtida Buxoro xonligi ham katta hududni Movarounnahr, Dashti Qipchoq va Xurosongacha bo'lgan yerlarni birlashtirib, harbiy-siyosiy jihatdan kuchli davlatga aylandi. Abdullaxon va Akbar taxtni egallaganlaridan keyin o'z davlatlarini mustahkamlashga, mustaqil va yarim mustaqil xon va knyazliklarni bo'ysundirishga, yangidan-yangi o'lkalarni bosib olishga kirishdilar. Abdullaxon qattiq kurash natijasida Balx va Hirotni (1573), Shahrisabz, Qarshi va Hisorni (1574), shu yillari Akbar Malva, Gondvan, Chitor va Gujarotni zabt etdi. O'sha davrda ikkala davlat o'rtasida bir qator diplomatik almashinuvlar bo'lib o'tdi. Masalan, Abdullaxon 1572-73, 1577-78 va 1586-yillarda Hindistonga elchilar yubordi. Shu asnoda Buxoro xoni Hindistonga obro'li amaldorlardan Mir Quraysh rahbarligida elchilar jo'natdi. U

o‘zi bilan sovg‘a sifatida bir qancha nafis mollar olib borgan edi. Elchilarning asosiy vazifasi Badaxshon Buxoroga qo‘shib olingandan so‘ng Akbarni Buxoro xonligiga munosabatini bilish bo‘lgan. Akbar Mir Quraysh elchilarni uzoq vaqt qabul qilmaydi, tarixchi olimlarning ta’riflashlaricha, Akbar Kashmirni o‘zdavlatiga qo‘shib olgandan so‘ng elchilarni qabul qilmoqchi edi. Shunday qilib, Akbar Buxoro elchilarini 1586-yili 14-mart kunida qabul qiladi. Akbar hukmronligining 30 yilligi (ya’ni 1586-yil) da Hindistonning O‘rta Osiyodagi rasmiy kishisi Muhammad Hakim Hindistonga Mirzo Shohruh va Mirzo Sulaymon boshliq elchilarni yuboradi. 1587-yilda esa Markaziy Osiyodan Akbar saroyiga Mir Quraysh boshliq rasmiy elchilar yuboriladi. Elchilar Hindiston chegarasiga yetib kelganlarida chegara ma’murlari ularni samimiy kutib oladi. U yerdan elchilar Hind qurolli qismlari himoyasida Dehliga yetib keldilar. Do‘stlik safari bilan Hindistonga kelgan Markaziy Osiyolik elchilar Dehlida bir qancha oy turib, Akbar tomonidan Abdullaxon saroyiga tayinlangan Hakim Humom boshliq Hind elchilari bilan o‘z Vatanlariga qaytadilar. Hind elchilari Akbarning Abdullaxon nomiga yozgan xatini va bir lakx (yuz ming) rupiy tanga va boshqa qimmatbaho zebu ziynatlardan iborat tuhfalarni olib keldilar. Akbar Abdullaxonga yozgan xatida Eron shohi Abbosga qarshi birga kurashish kerakligi, o‘z mamlakatlari orasida do‘stlik munosabatlarini o‘rnatish zarurligi to‘g‘riida yozadi. Hind elchilarini Abdullaxon hind odati bo‘yicha qabul qiladi. Elchilar Markaziy Osiyoda ikki yilga yaqin bo‘ladilar, so‘ngra katta tuhfa va tortiqlar bilan Hindistonga qaytib ketadilar.[4]

1590-yili Mavlono Husayn boshliq Abdullaxonning yangi elchisi ham Akbar huzuriga safar bilan tashrif buyurgan. 1596-yili Xoji Ashraf Naqshband va Sulton Husayn Lakxnav boshliq Akbarshoh elchilari Buxoro tomon yo‘lga chiqadilar. Elchilar Abdullaxonga Akbarshohning katta sovg‘a-salomlari bilan o‘zaro do‘stlikni mustahkamlashni ta’kidlovchi maktub ham olib kelgan edi. Akbarshoh elchilari 1597-yil 9-sentabrda Buxoroga yetib keladilar. Abdullaxon ularni katta izzat-ikrom bilan kutib oladi. Akbardan keyingi imperator Jahongirni (1605-1627) taxtga o‘tirgani bilan tabriklash uchun Imomqulixon (1611-1642) Jahongir saroyiga elchi yuboradi. Bunga javoban Hindistondan Markaziy Osiyoga zamonasining atoqli olimi Hakim Hoziq boshliq elchilar keladi. Elchilar o‘zlari bilan qimmatli sovg‘alar qo‘shib jo‘natiladilar. Sovg‘alar orasida qimmatbaho toshlar qadalgan chodir kishining diqqatini o‘ziga tortar edi. Aytishlaricha, bu

chodir unga qadalgan oltin va qimmatbaho toshlarning narxi butun Hindistondan yig'ilgan bir yillik xiroj solig'iga barobar edi.

Bobur davrida Buxoro xonligi bilan Hindiston o'rtasidagi munosabatlar nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy, madaniy va ilmiy jihatdan ham izchil rivojlangan. Bu aloqalar ikki tomonlama manfaatlarni ta'minlab, mintaqaviy barqarorlikni saqlashga xizmat qilgan. Elchilik missiyalari, savdo karvonlari, mahsulot almashinuvi va hunarmandlar harakati ikki mamlakat o'rtasida ishonch, hurmat va hamkorlik ruhini rivojlantirgan. Madaniy va ilmiy almashinuvlar esa Buxoro va Hindiston madaniyati o'rtasida yaqindan tanishuvga, ilm-fan va hunarmandchilik sohalarida yangi tajriba va bilimlar almashinuviga zamin yaratgan.

Bugungi kunda esa tarixiy aloqalar negizida shakllangan diplomatik munosabatlar mustahkam va do'stona asosga ega. O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi diplomatik muloqotlar, savdo va iqtisodiy sheriklik, ta'lim, ilm-fan va madaniyat sohalaridagi hamkorlik kengaymoqda. Masalan, ikki mamlakat universitetlari va ilmiy markazlar o'rtasida tajriba almashinuvi, qo'shma ilmiy loyihalar, madaniy tadbirlar va san'at festivallari doimiy ravishda tashkil qilinmoqda. Bu esa ikki davlat o'rtasidagi tarixiy do'stlik va hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Shuningdek, energetika, texnologiya, turizm va transport sohalarida hamkorlik loyihalari O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi strategik sheriklikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ikkala tomon ham o'zaro ishonch, iqtisodiy manfaatlar va mintaqaviy barqarorlikni saqlashni ustuvor vazifa sifatida belgilagan. Shu tariqa, Bobur davrida o'rnatilgan Buxoro–Hindiston aloqalari nafaqat tarixiy tajriba sifatida saqlanib qolgan, balki hozirgi kunda ham diplomatik, iqtisodiy va madaniy sohalarda rivojlanayotgan hamkorlikning mustahkam poydevorini yaratmoqda. Bu munosabatlar ikki mamlakat o'rtasida doimiy tinchlik, barqarorlik va o'zaro hurmatni rivojlantirishga xizmat qilmoqda, shuningdek, mintaqaviy va global darajada ham strategik ahamiyatga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.B.Obidov Boburiylar davrida Hindiston va Turkiston aloqalari (XVI-XVII) Toshkent 2003 B-105
- 2.Hofis tanish al-Buxoriy Abdullanoma "Sharq" nashiryoti, Toshkent 1999-yil

3. Abdurazzoq Samarqandiy Matlai sa'dayn va majmai bahrayn. II jild II qism. O`rinboyev tarjimasi T. Fan. 1969. B-57

4. Ramesh Chandra Varma. Akbar and Abdulla Khan. "Islamic Culture" 1947. Hyderabad. B-330

5. Z. M. Bobur. Boburnoma. Toshkent "Sharq" nashriyoti 2007-yil b-307